

“NAZM UL-JAVOHIR” ASARIDAGI HIKMATLI SO‘ZLARNING KO‘P TILLI MUQOBILLARI

Komiljonova Diyora

Oriental universiteti Filologiya va tillarni o‘qitish talabasi

Tuychiyeva Oydin

Oriental universiteti Tillar-1 kafedrası dotsenti

Annotatsiya.: *Mazkur maqolada Alisher Navoiyning “Nazm ul-javohir” asarida qo‘llangan hikmatli so‘zlar hamda ularning o‘zbek, fors, rus va ingliz tillaridagi muqobillari qiyosiy-lingvistik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida hikmatli birliklarning semantik mazmuni, badiiy-estetik xususiyatlari, g‘oyaviy mushtarakligi va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘liqligi yoritiladi. Hikmatlarning turli tillarda ifodalanishi orqali ularning madaniyatlararo umumiylik va barqarorlik xususiyatlari aniqlanadi.*

Kalit so‘zlar: *hikmatli so‘zlar, muqobillik, qiyosiy tahlil, semantika, tarjimashunoslik, adolat, to‘g‘riso‘zlik.*

Alisher Navoiy (1441–1501) turkiy adabiyot taraqqiyotida beqiyos o‘rin egallagan ulug‘ mutafakkir, shoir va davlat arbobidir. U o‘zining boy adabiy merosi orqali turkiy tilning nufuzini yuksaltirish, adabiy-estetik tafakkurni rivojlantirish hamda haqiqat, adolat va insoniylik g‘oyalarini targ‘ib etishga xizmat qilgan. Sharqda “Nizomi millat va din” unvoni bilan e‘zozlangan Navoiy ijodi G‘arb ilm-fanida ham chig‘atoy adabiyotining yuksak namunasi sifatida baholanadi.

Navoiyning didaktik va falsafiy qarashlari ayniqsa uning hikmatga yo‘g‘rilgan asarlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Ana shunday asarlardan biri “Nazm ul-javohir” bo‘lib, mazkur asar hozirga qadar yetarli darajada kompleks va qiyosiy jihatdan chuqur tadqiq etilmagan.

“Nazm ul-javohir” (“Javohirlar sandig‘i”) asari Alisher Navoiyning ta‘lim-tarbiyaviy, axloqiy-falsafiy qarashlarini o‘zida mujassam etgan muhim manbadir. Asar Navoiy asarlarining XV jildli (1968) hamda yigirma jildli mukammal nashrlarida (1999) chop etilgan. Asar 1485-yilda yozib tugallangan bo‘lib, unda Hazrat Ali hikmatlari ruboiy shaklida badiiy talqin etilgan.

Manbalarda ta‘kidlanishicha, “Nazm ul-javohir” asarining yaratilishiga ikki asosiy sabab bo‘lgan: birinchidan, fors adabiyotida “Nasr ul-laoliy” hikmatlarining nazmga solib kelinishi an‘anasi, ikkinchidan esa Navoiyning yaqin do‘sti va homiysi Husayn Boyqaroning “Risola” asari yozilishiga bo‘lgan rag‘batdir. D. Yusupovanning fikricha, asar nomidagi ramziylik Hazrat Ali hikmatlarining yagona tizim asosida jamlanganini anglatadi.

“Nazm ul-javohir” asarida jamlangan hikmatli soʻzlar insoniy fazilatlar, axloqiy meʼyorlar, adolat va maʼnaviy poklik masalalariga bagʻishlangan. Navoiy hikmatlarni nazmga solishda badiiy sanʼatlardan, xususan, tazod, tashbeh va umumlashtirish usullaridan mahorat bilan foydalangan.

Masalan, Hazrat Alining “Jalla man lo yamutut” (“Oʻlmaydigan Zot buyukdir”) hikmati quyidagi ruboiyda ifodalangan:

Gardunki, xaloyiqqa vafosi yoʻq aning,
Javr ichra ulugʻ-kichikka posi yoʻq aning.
Har kimki kichik boʻlsa, baqosi yoʻq aning,
Kimki ulugʻ bilki, fanosi yoʻq aning.

Mazkur ruboiyda “kichik – ulugʻ”, “fano – baqo” kabi qarama-qarshi tushunchalar orqali tazod sanʼati yuzaga keltirilgan boʻlib, hikmatning falsafiy mazmuni kuchaytirilgan.

Maqolada “Nazm ul-javohir” asaridagi ayrim hikmatli soʻzlar tanlab olinib, ularning oʻzbek, fors, rus va ingliz tillaridagi muqobillari qiyosiy tahlil qilindi.

Masalan, “Soʻzning yaxshisi qisqadir” hikmati oʻzbek tilidagi “Qisqa soʻz — muxtasar” maqoliga mos keladi. Ushbu hikmat rus tilida “Лучшая речь — краткая речь”, ingliz tilida “The best speech is the shortest one”, fors tilida esa “به گفتار خوبی” shaklida ifodalanadi.

“Toʻgʻri soʻz kishi erkin nafas oladi” hikmati esa toʻgʻrisoʻzlik va halollik gʻoyasini ifodalaydi. Uning rus tilidagi muqobili “Правдивому человеку дышится свободно”, ingliz tilida “Truthfulness is the pledge of a man’s freedom”, fors tilida esa “آدمی رهایی” tarzida uchraydi.

Shuningdek, “Hasadchida rohat yoʻq”, “Kishining bezagi odobidir”, “Hunar — kishining boyligidir”, “Otangni boq, bolang ham seni boqadi” kabi hikmatlar ham turli tillarda mazmunan yaqin muqobillarga ega boʻlib, ularning umuminsoniy ahamiyatini koʻrsatadi.

Xulosa qilib aytganda, Alisher Navoiyning “Nazm ul-javohir” asarida jamlangan hikmatli soʻzlar chuqur falsafiy mazmuni, axloqiy yoʻnalishi va umuminsoniy gʻoyalari bilan ajralib turadi. Mazkur hikmatlarning oʻzbek, fors, rus va ingliz tillarida muqobillarining mavjudligi ularning madaniyatlararo umumiylikka ega ekanini koʻrsatadi. Tadqiqot natijalari “Nazm ul-javohir” asarining nafaqat adabiy-badiiy, balki lingvistik va tarjimashunoslik nuqtayi nazaridan ham yuksak ilmiy ahamiyatga egaligini tasdiqlaydi. Ushbu asar insonning maʼnaviy dunyosini boyituvchi, ezgulik va adolat gʻoyalarini targʻib etuvchi bebaho maʼnaviy meros sifatida bugungi kunda ham dolzarbdir.

SERTIFIKAT

Komiljonova Diyora

“NAZM UL-JAVOHIR” ASARIDAGI HIKMATLI SO‘ZLARNING KO‘P
TILLI MUQOBILLARI

nomli ilmiy maqolasi

“YANGI RENESSANSDA ILM-FAN
TARAQQIYOTI”

ilmiy konferensiyasida nashr etilganligi
uchun berildi.



BOSH MUHARRIR

“Yangi renessansda
ilm-fan taraqqiyoti” konferensiyasi

30.12.2025

SANA



SERTIFIKAT

Tuychiyeva Oydin

“NAZM UL-JAVOHIR” ASARIDAGI HIKMATLI SO‘ZLARNING KO‘P
TILLI MUQOBILLARI

nomli ilmiy maqolasi

“YANGI RENESSANSDA ILM-FAN
TARAQQIYOTI”

ilmiy konferensiyasida nashr etilganligi
uchun berildi.

BOSH MUHARRIR

“Yangi renessansda
ilm-fan taraqqiyoti” konferensiyasi

30.12.2025

SANA

